



## KLINIK ATAMALAR SHAKLLANTIRISHDA SUFFIKSATSIYA USULI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

---

*Ermatova Rano Omonovna*

*Katta o'qituvchi*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*

*[tmatbermatova@gmail.com](mailto:tmatbermatova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tibbiy atamalar yasashida suffikslarning o'рни haqida ma'lumot beriladi va "Klinik atamalar shakllantirishda suffiksatsiya usuli ahamiyati" mavzusida o'tiladigan dars mashg'ulotida foydalaniladigan eng samarali metodlar, taqdimotlar va tarqatma materiallar keltirilgan.

**Kalit so'z:** suffiks, prefiks, o'zak, tugallanma, fleksiya, morfema, affikslar, so'z negizi, termin, so'z tarkibi, klinik atamalar.

**Annotation** This article provides information on the role of suffixes in the construction of medical terms, as well as methods, presentations, and handouts used in teaching of lesson on "The importance of the method using suffixes in the formation of clinical terms".

**Key words:** suffixes, prefix, affixes, stem, suffix, morpheme, stem words, terms, structure words, clinical terminology.

Bugungi kunda mamlakatimizda tibbiyot va ta'linga katta e'tibor ko'rsatilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ushbu sohalar rivoji uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. "Ta'limdagi ishlar ham, tibbiyotdagi ham igna bilan quduq qazishdek gap, natijasi tez ko'rinmaydi. Buning uchun mashaqqatli mehnat, katta fidoyilik kerak. Boshlangan islohotlarning amalga oshishi, xalqimizning rozi bo'lishi shunga bog'liq. Bu yo'lda sizlarga ishonaman, suyanaman", - dedi Prezident. "Bu ikki sohani rivojlantirmasdan turib raqobatbardosh mamlakat bo'la olmaymiz. Kelajakni sog'lom millat, bilimli avlod quradi", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, kasbni mukammal egallash kasb tilini aks ettiruvchi so'zlar va atamalarni o'rganish bilan boshlanadi Har bir atama ma'lum bir quyi tizimning elementidir, masalan, anatomik, gistologik, embriologik, terapevtik, jarrohlik, ginekologik, endokrinologik, sud-tibbiy, travmatologik, psixiatrik, genetik, botanika, biokimyoviy va boshqalar. Har bir kichik atama qabul qilingan tushunchalarning ma'lum ilmiy tasnifini aks ettiradi. Shu bilan birga, turli xil quyi




tizimlarning atamolari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, makro-muddatli tizim darajasida ma‘lum semantik aloqalardadir.

Hozirgi zamon tibbiy atamolari – keng qamrovli va murakkab atamalardan deb hisoblash mumkin. Bunda bir necha ming yillik so‘zlar va birikmalar mujassamlashgan. Tibbiy va biologik atamalarda ko‘p asrlik an‘analarni lotin tilining ishlatilishida alohida ahamiyatga ega. Lotin tilini o‘qitish tibbiy atamalarining asosini o‘qitishdan boshlanadi.

Tibbiyotda atamalar ishlatilishi juda muhim o‘ringa ega va bo‘lajak shifokorlardan ushbu atamalar va ularni tuzilishi, tarkibiy qismlari va so‘z yasovchilarni mukammal o‘rganishlari talab etiladi

Fan, texnika va sanoat sohasida muvaffaqiyatli ish olib borish uchun mutaxassis atamalar mohiyatini maxsus leksika, yoki boshqacha aytganda terminologiyani to‘g‘ri tushunishi hamda undan aniq foydalanishi zarur. Terminning (lot. terminus – chegara) asosiy vazifasi ilmiy tushunchani faqat o‘ziga xos ifodalashdan iborat. Termin sifatida alohida yakka so‘z (organizm, hujayra, organ, gen, kasallik, appenditsit, flyurografiya) bilan bir qatorda so‘z birikmasi (ko‘krak qafasi, ensa suyagi, gipertonik kasallik, sanitar ishlov berish, radiatsion gigiena) ham bo‘lishi mumkin. Kundalik hayotda ishlatiladigan adabiy tilning ommabop so‘zlaridan farqli o‘laroq terminlarda ilmiy va ilmiy-texnik tushunchalar ifodalanadi. Ilmiy tushuncha o‘zining ilmiy nazariy xulosalar mahsuliligi, ma‘lum bir ilmiy nazariya, bilimlar ilmiy tizimi fragmentini aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Bilim, fan sohasining ma‘lum bir terminologiyasi – bu tushunchalar tizimida ilmiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan, o‘zaro ma‘lum bir aloqa va bog‘liqlikda bo‘lgan terminlar, so‘zlar va so‘z birikmalari tizimidir. So‘z tarkibi quyidagi na mazmun, na shakl jihatidan bo‘linmas, eng kichik ma‘noli qismlar farqlanadi: old qo‘shimcha (prefiks), o‘zak, suffiks va tugallanma (fleksiya). Ushbu eng kichik ma‘noli qismlar morfema (yun. morphe - shakl) deyiladi. O‘zakka nisbatan joylanishi bilan farq qiluvchi prefiks va suffiks birgalikda so‘z yasovchi affikslar (lot. affixus - qo‘shimcha) deyiladi. Ularning o‘zakka qo‘shilishidan yangi so‘zlar - yasama so‘zlar hosil bo‘ladi. Tugallanma - grammatik ahamiyatga ega affiks bo‘lib, shakl yasash (kelishik, son, rod) uchun xizmat qiladi. So‘zni morfemalarga bo‘lish morfem tahlil yoki tarkibiy tahlil deyiladi:



Tugallanmagacha bo'lgan so'zning o'zgarimas qismi leksik ma'no tashiydi va so'z negizi deb ataladi.

Talabalarga tibbiy atamalar tarkibi, yasalish usullari, cuffikslarning klinik atamalar yasalishidagi ishtirokini o'rgatishda “SCAMRER” usuli, “KWHL kreativ” usuli, CLUSTER usuli va Feedback usullari kabi interfaol metodlardan foydalanib dars jarayonini mazmunli tashkil yetish mumkin.

### Sharada o'yini

Talabalar o'qituvchi aytgan so'zni navbatma-navbat ijro etishadi, ularning guruhdoshlari esa bu so'z nima ekanligini taxmin qilishga harakat qilishadi. Bu oldingi darsdagi lug'atni qayta ko'rib chiqish yoki yangi so'z bilan tanishtirish uchun yaxshi imkoniyatdir. Talabalar ushbu mashg'ulotga chindan ham sho'ng'ishadi va ular odatda so'zning ma'nosini amalga oshirish uchun juda ko'p harakat qilishadi.

radius, i m –bilak suyagi  
 pulmo, ōnis *f* - o'pka  
 pharynx, ngis *m* - xalqum  
 os, ōris *n* - og'iz  
 occiput, itis *n* – ensa  
 morbus, i m - kasallik  
 musculus, i m – *mushak*  
 princeps, cipis *m* - boshliq, raxbar,

**“SCAMRER” usuli:** Mazkur mavzu bo'yicha quyidagi interfaol ta'lim metodlaridan.



<b>SUBSTITUTE</b> (АЛМАШТИРИШ)	нима билан алмаштириши мумкин?
<b>COMBINE</b> (БИРЛАШТИРИШ)	нималарни бирлаштириши мумкин?
<b>ADAPT</b> (МОСЛАШТИРИШ)	нимага мослаштириши мумкин?
<b>MODIFY/MAGNIFY</b> (МОДИФИКАЦИЯ БОШҚА ТУРИ (ҲОЛАТИ))	Қандай яхшилашим мумкин? (ортиқча ишланган, етмаяпти)
<b>PUT TO OTHER USES</b> (БОШҚАСОҲАЛАРДАҚЎЛЛАШ)	Нима ўзгариши мумкин? (маълумотни шакли, белгилар, ранг ва бошқалар)
<b>ELEMINATE</b> (ҚИСҚАРТИРИШ)	яна қандай ҳолда қўллаш мумкин?
<b>REARRANGE/REVERSE</b> (ТАРТИБИНИ ЎЗГАРТИРИШ)	Нимани қайта тиклаш мумкин? (Буюртмани ўзгартириши, компонентларни алмаштириши)

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga «SCAMRER» texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

- ishtirokchilarning munosabatlari guruhviy tartibda taqdimot qilinadi. «SCAMRER» usuli qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

### “KWHL kreativ” usuli



Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologiyaning maqsadi: murakkab masalalarni yechishda yangi ideyalar qidirib topishga yordam beradigan samarali sxema. Bu texnologiyaning kelib chiqishiga barcha yangi ideyalar eskilarining modifitsirlangan shakli ekanligiga tasdiqlovchi kuzatuvlar sabab bo‘lgan.

Namuna: Klinik atamalar yasalişhida suffikslar ishlatilishiga misollar keltiring.



KWHL means what a student knows (K), what a student wants to know (W), how a student will find the information, and what a student has learned (L) about a topic).


Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg‘ulotning boshida va mashg‘ulotning oxirida olgan bilimlarini namoyish etadilar.

Topshiriq: Mazkur topshiriqni «SCAMRER» orqali bajaring.

<i>KWHL креатив таълим усули</i>	
<i>Нималарни биламан:</i>	<i>Нималарни билишни хоҳлайман, нималарни билишим керак:</i>
<i>3. Қандай қилиб билиб ва топиб оламан:</i>	<i>Нималарни билиб олдим:</i>

**CLUSTER usuli**

Talabalar klinik atamalar yasalishida ishlatiladigan suffikslar turlari va ularga misollar yozadilar.




**Feedback usuli**

(KWHL means what a student knows (K), what a student wants to know (W), how a student will find the information, and what a student has learned (L) about a topic).

Metodni amalga oshirish tartibi:



- ishtirokchilar mashg'ulotning boshida va mashg'ulotning oxirida olgan bilimlarini namoyish etadilar.



Lotin tilini bilish nafaqat muvaffaqiyatli o'rganishga, balki qadimgi faylasuflarning asarlarini asl nusxada o'qishga ham imkon beradi. Jarayon qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu tilda juda ko'plab tibbiy atamalar borligi va ularni o'rganish bo'lajak shifokorlar uchun juda muhimligini talabalarga yetkaziladi. Ushbu atamalar yasalishida suffikslarning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanib, ushbu jarayon qiziqarli metodlardan foydalanib tushuntiriladi.

**Xulosa** qilib aytganda, til – jamiyatning asosiy tayanchi, insoniy muloqot-munosabatlarning birlamchi vositasi, millat ruhi va davlatchilik taqdiridir. Lotin tili o'lik til bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda tibbiy ta'limni asosini tashkil etadi. Tibbiyotning barcha sohalari o'zlarining terminologiyasiga lotin tilida va u orqali qadimgi yunon tilida asoslanadi. Tibbiyot ilmiy terminologiyasi o'z ta'limida doimo tibbiyotning rivojlanishi bilan hamohangdir. Yangi hodisalar, kasalliklarning nomlari, dorivor moddalar yangi nomlarni talab qiladi - butun asrlar davomida va bugungi kunda lotin-yunon lug'ati asosida shakllangan atamalar.

Tibbiyot institutida o'qishning asosiy vazifasi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Maxsus terminologiyani o'zlashtirmasdan turib, bu vazifani tasavvur qilib bo'lmaydi. Bo'lajak shifokorlarning terminologik tayyorgarligi nafaqat terminologiyani tushunish, balki uni o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy ilmiy til shifokorning so'z boyligi turli tibbiy-biologik, anatomik-gistologik va klinik atamalarga juda boy. Shifokor gapirganda ham professional mavzu lotincha so'zlarning 50 dan 80% gacha foydalanadi. Tibbiyotning barcha tarmoqlari lotin tili va u orqali qadimgi yunon tiliga asoslanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi talabalarga tibbiyot terminologiyasi asoslarini: anatomik, klinik va farmasevtik atamalarni, ularning tuzilishini, tarkibiy



qismlarini tibbiy atamalar shakllantirishda suffikslarning ishtirokini o'rganishga yordam berishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoev. Pedagog va shifokorlar bilan videoselektordagi nutqidan. 2022.
2. R.M.Abdullaeva, M.A.Saydullayeva, S.S' H.Rustamova, O.S.Paymina "Lotin tili va tibbiy terminologiya" Toshkent., 2020
3. M.N.Boliev "Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi" Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent., 2002
4. G.S.Agzamova, Z.F. Umarova "Terapiya fanlarini o'qitishga zamonaviy yondoshuvlar" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent., 2019
3. M.H. Chernyavskiy «Латынский язык и основы медицинской терминологии». 1989
4. Izucheniya latinskogo yazyka kak faktora intellektualnogo i kulturnogo razvitiya studentov - medikov. M.N.I sroilova. -Tashkent: «Fan va texnologiya», 2011.
5. R. O. Ermatova, A. X. Juraev "Body organizations with medical terminology" o'quv qo'llanma, 2023.

#### **Internet saytlar:**

<http://e-library.namdu.uz/>

www. TMA.uz

www. Teacher, fio.ru

www. Med.vir.ru